



## “EKOLOGIYA – DUNYODAGI SUV MUAMMOSI”

**N.B.Lutfullayeva, A.D.Abdurahmonov**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, O‘zbekiston**

**Anatatsiya:** Dunyoda suv tanqisligi va atrof-muhit ifloslanish muammolari hamda bu muammolarga qarshi bugungi kunda qanday islohotlar yo‘lga qo‘yilganligi haqida qisqacha ma‘lumot.

**Kalit so‘zlar:** Ekologiya, biologik resurs, ekologik muammolar, atrof-muhit, omil, atmosfera, ekozona, suv, tuproq, kimyoviy moddalar, pestitsidlar, chiqindilar, ekodiagnostika, biosfera.

Suv–hayot manbai. Uning qiymati dunyo globallashuvi jarayonida yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Zero, suvsiz hayot yo‘q. Suv tiriklik evolutsiyasiga ham, atrof-muhit, iqlim o‘zgarishlariga ham million yillardan buyon beqiyos ta’sir ko‘rsatib kelayotgan obi hayotdir. Shunday ekan, insoniyat uni ko‘z qorachig‘idek asrashi shart.

Bugungi kunda davlatlar o‘zlarida mavjud resurslarning deyarli barchasidan maksimal darajada foydalanmoqda. O‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1960-yillardan buyon suvga bo‘lgan talab ikki baravar ko‘paygan. Bunga aholi sonining ortishi, qishloq xo‘jaligi va sanoatning rivojlanishi ta’sir ko‘rsatdi. Kelajakda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika bu muhim resursning tanqisligiga birinchi bo‘lib duch keladi, bu esa oxir-oqibat nizolarga olib kelishi hamda sanoatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayni paytda Shimoliy Amerika va Yevropada suv muammosi nisbatan barqaror. Ammo bu mazkur hududlar xavfdan yiroq degani emas.

Misol uchun, AQSHning 6 ta shtatida suv tanqisligi juda yuqori. Ortib borayotgan talab va tez iqlim o‘zgarishi Hindiston va Xitoy yalpi ichki mahsulotining pasayishiga ham olib kelishi mumkin.

Suvning kamayishi sababli global oziq-ovqat xavfsizligi ham tahdid ostida. Hozirda dunyoda sug‘oriladigan maydonlarning 60 foizi qurib bormoqda. Ayniqsa, shakarqamish, bug‘doy, sholi, makkajo‘xori yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaliklari. Ushbu muammoga mutaxassislar bir qator echimlarni taklif qilishadi. Ular orasida suv-botqoq va o‘rmonlarni saqlash, fermerlar tomonidan sug‘orishning yanada samarali usullarini joriy etish hamda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish kiradi. Singapur va Amerikaning Las-Vegas shaharlari allaqachon suv tanqisligi sharoitida ham gullab-yashnash mumkinligini isbotlashga muvaffaq bo‘lishgan. Bunga oqova suvlarni tozalash va qayta ishlatish orqali erishildi. Biroq, hamma mamlakatlar ham buni qilolmaydi. Dunyoda chuchuk suvga talab hech qachon bunchalik yuqori bo‘lmagan.

Inqirozga shaharlarning tez rivojlanishi va suvni yomon boshqarish sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, global isish tufayli tuproq quriydi va yog‘ingarchilik yer singdira olmaydigan yomg‘ir shaklida yog‘moqda.



Qayd etish joiz, hozirgi paytda suvga bo'lgan talab va ehtiyoj har qachongidan tobora ortib bormoqda. Natijada butun dunyoda suv tanqisligi kuzatilmoqda. Ushbu dolzarb masala Markaziy Osiyo mintaqasini ham chetlab o'tgani yo'q. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, 2050-yilgacha suv resurslari Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Boshqa tomondan esa, aholining o'sishi hisobiga, O'zbekistonda 2030 yilga borib, suvga bo'lgan talab 7 mlrd. kub metr ga yetishi, 2050-yilga borib esa, bu ko'rsatkich ikki barobarga ortishi mumkin.

Shularni inobatga olib, so'nggi yillarda mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish tubdan isloh qilinmoqda. Asosiy masala — suvdan oqilona va samarali foydalanish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan. Binobarin, Prezidentimizning saylovoldi dasturida ham suv resurslarini tejashga alohida e'tibor berilib, 2030-yilga qadar respublikamizdagi sug'orma dehqonchilik qilinadigan barcha ekin maydonlarini to'liq suv tejaydigan texnologiyalarga o'tkazish, sohaga bozor mexanizmlarini keng tatbiq yetish, suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etgan fermer va dehqonlar uchun rag'batlantirish mexanizmlarini yanada ko'paytirish choralari ko'rilishi belgilandi.

Jumladan, 2017 – 2023-yillarda jami 1,2 mln. gektar maydonda, ya'ni qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining qariyb 31 foizida suv tejoychi texnologiyalar joriy etildi. Bu tomchilatib, yomg'ir latib, diskret sug'orish, egiluvchan quvur, plynka to'shab sug'orish kabi texnologiyalarni o'z ichiga oladi, ushbu yillarda 630 ming gektar yer lazerli tekislandi.

Muxtasar aytganda, bugun atrofimizda ro'y berayotgan suv bilan bog'liq ekologik muammolar barchamiz uchun ogohlik qo'ng'irog'i hisoblanadi. Bundan har birimiz tegishli xulosa chiqarib, suvni tejash va isrof qilmaslik tamoyilini kundalik mezonimizga aylantirishimiz zarur. Zero, global muammolar, aslida, kichik e'tiborsizliklardan kelib chiqishini unutmaylik. Bugun bizga hayot va zavq ulashayotgan toza ichimlik suvidan kelajak avlod ham bizdek bahra olib foydalanishga haqli. Shunday ekan, obi hayotni isrof qilmaylik.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'.E. Xo'janazarov, Sh.T. Yakubjonova. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. 2018.
2. A.E.Ergashev, T.A. Ergashev. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. 2009.
3. Экология и экономика природопользования (Перевод). М. 1997.
4. Лутфуллаева Н.Б., Маматмуминов О.М.& Отамуродов Д.З. (2023) Влияние человеческого фактора и производственных предприятий на экологию органическая связь между природой и обществом. Proceedings of international Educators Conference, 2(11), 19-23.